

Mavzu: Mustahkamlash



1-mashq. Ko'chiring. Shaxs va narsa nomini bildirgan so'zlarning tagiga chizing.

1. Ra'no rasmlariga rang-barang rang tanladi.
2. Katta-katta ko'zmunchoq,
Ko'ylaginga ko'rk munchoq¹.

- Tez aytishlarni mashq qiling.



2-mashq. Berilgan so'zlarni namunadagidek tahlil qiling.

Namuna:

1 *nom*
mushuk

2 *belgi*
momiq

3 *harakat*
uxladi

qurildi, issiq, baland, non, uy, yopildi

- Shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

3-mashq. Ko'chiring. Shaxs va narsaning nomini bildirgan so'zlarning tagiga chizing.

Ahmad va Madina shaharda yashaydi. Uylarining oldidagi bog'ga tez-tez chittaklar uchib keladi. Bolalar qushlar uchun uyalar yasab, ularni daraxtga osib qo'ydilar. Endi chittaklar qishning sovug'ida boshpana topadi.

